

## IRONIYA LINGVOPOETIK HODISA SIFATIDA

(Sharof Boshbekov dramalari misolida)

**Gavhar Andaniyazova Ruziqulovna**

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ironiya hodisa va uning Sharof Boshbekov asarlaridagi o‘rni, badiiy-estetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar: lingvopoetik xususiyat, dramatik nutq, ironiya, kinoya, sarkazm, antifraza.*

Ironiya badiiy matnda tilga olingan so‘z va iboralarning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatiladigan kesatiq, qochirim, pichingdan iborat ko‘chimdir. Ironiyaning ildiziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Aflotunda ironiya shunchaki yolg‘on yoki behuda gaplar emas, mohiyatan ifodalanmagan narsaning to‘liq teskarisini ifodalaydigan birlik sifatida qaralgan. Suqrot asarlarida ham ironiya istehzoning bir ko‘rinishi bo‘lib uning yordamida juda ko‘p haqiqatlarga yuzlanish va ayta olish uchun asosiy qurol sifatida foydalanilgani sir emas. [Osinovskaya I. 1:84]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilshunosligida Abdullaev o‘zining “O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli” nomli monografiyasida ironiya usulini qo‘llash va foydalanishdan asosiy maqsad *fikrni o‘ta ta’sirchanlik bilan yetkazishga erishishdir*[Abdullaev A. 2:36]”, – deydi. S.Karimov tomonidan esa ironiyaga lingvo-estetik kategoria sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lishi haqidagi g‘oya ilgari surilgan. Ammo T.Tohirovning “O‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda sub’ektiv munosabatlarning yuzaga chiqishi. [Karimov S. 3:29.]” nomli tadqiqotida ironiya lingvistik hodisalar qatoriga kiritilmaydi: “U sof nutqiy, uslubiy vositadir. U tushunchani piching-uchuruq vositasida yetkazishga xizmat qiladi”, degan fikrga duch kelamiz.

Ironiyaga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarda mazkur masala yuzasidan bir qancha fikrlar bildirilgan. Jumladan, R.Qo‘ng‘urov: “So‘z va iboralarni kesatiq, piching bilan o‘z ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda ishlatilishiga ironiya priyomi deyiladi [Qo‘ng‘urov R. 4:15.]», – deb yozadi. M.Mirtojiev esa “kinoya usuli bilan hosil qilingan ma’no faqat okkazional ma’no doirasiga oid [Mirtojiev M. 4: 15.]” ekanligini ta’kidlaydi. M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” asarida esa kinoya “til birligining haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim» ga aytilishi yozilgan. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta’sirchan ifodalar yaratishda qo‘llanilib kelinganligi, Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa “ironiya” atamasi ostida umumlashtirilishi qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Uning **antifraza** (*masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish*) hamda **sarkazm** (*zaharxanda*



*ta'na, iztehzoli piching, shama*) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanishi asoslab berilgan. [Yo‘ldoshev M. 5:63 ]

Ko‘p tilshunoslar, masalan, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, A.Hojiev, M.Yo‘ldoshev kabilar *ironiyaga* deyarli bir xil ta‘rif beradilar, ya‘ni so‘z iboralarni kesatish, masxaraomuz kulish niyatida o‘z ma‘nosiga qarama-qarshi ma‘noda ishlatilishi *ironiya* ekanligini qayd etadilar. Sh.Abdurahmonovning fikricha, kinoya bevosita maqsadli, tagma‘noli matnda hosil bo‘ladi. Kinoya zaminida o‘z navbatida, tanqidiy kulgi yotadi. Matnda til birliklarining kinoyaviy ekanligini anglashda, shuningdek, kulgi hosil bo‘lishida presuppozitsiya ham muhim rol o‘ynaydi. Qolaversa, paronomaziya hodisasi maxsus kinoyaviy kulgi hosil qilishda alohida ahamiyatga ega ekanligi tadqiqotchi tamonidan ta‘kidlanadi [Abdurahmonov Sh. 6: 19]. Yuqoridagi mavjud adabiyotlardagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, bu badiiy vosita bir xil mohiyat anglatuvchi ikki xil – *ironiya* yoki *kinoya* terminlari bilan nomlanadi va har ikkala atama tilshunoslikda birdek qo‘llanadi. Ma‘lumki, ironik mazmun *til birliklari – fonetik vositalar, ohang, leksik-frazeologik birliklar, morfologik shakl, sintaktik yo‘l orqali ifodalanar* ekan uni lingvistik hodisa emas, degan qarashlar faqat bir yoqlama bo‘lib qoladi xolos.

Ma‘lumki, Sharof Boshbekov o‘zbek adabiy-badiiy til rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkordir. Ayniqsa, uning dramalarida o‘zbek tilining shiraliligi, ohangdorligi, ifodaliligi, ta‘sirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. Muallif tomonidan asar qahramonlari ruhiyati, xarakteridagi o‘ziga xoslikni ochib berish, *komik effekt yaratish* uchun ironiya tasviriy vositasidan ham o‘z o‘rnida unumli foydalanilgan. Qahramonlar nutqida qo‘llanuvchi bunday so‘zlar esa ularning ichki dunyosi xususiyatini ham ko‘rsatishga xizmat qilgan. *Adib qahramonini kutilmagan holatda so‘zlatib, zohiran jiddiy, aslida esa masxaraomuz, ya‘ni zimdan kulish bilan kesatib aytilgan so‘z va ibora orqali haqiqatni ayta olgan, voqelikka o‘zining munosabatini ifoda eta olgan ijokordir.* Dramaturg jiddiy komediyalarida, ayniqsa, ironik mazmunning eng yuqori kulminatsion nuqtasiga yetkazilgan usuli – *sarkazmlardan* yuqorida sanab o‘tilgan turli lingvopoetik maqsadlarda mahorat bilan foydalanadi. Jamiyatdagi o‘sha davrda hamma ham ayta olmagan kamchiliklarni zaharxanda kulgi bilan fosh qiladi. *Sarkazm* yunon tilidan olingan bo‘lib, “*achchiq, zaharxanda, istehzoli ta'na*” degan ma‘nolarini anglatib, uni *piching* atamasi bilan ham qo‘llash holatlari uchraydi. U o‘ta salbiy munosabat ifodalash usuli bo‘lib, unda zaharxandalik, masxaralash, qahr-g‘azab ochiq-oydin sezilib turadi. Asarda *piching*, ya‘ni *sarkazm* tasviriy vositasi ham voqea-hodisalar va kishilarning salbiy tomonlarini, xususiyatlarini fosh qilishda juda muvofiq tarzda qo‘llanadi. *Piching* so‘zlovchining murojaat qilinayotgan kishiga nisbatan ustunlik hissiyotiga asoslanadi.



*Pirmat. Kichkina tug‘ilganidan onasi rahmatli telpakka solib katta qilgan?*

*Qulmat. Dada! Qo‘ysangiz-chi, bo‘lmagan gapni! Bus-butun tug‘ilganman, xudoga shukur. Mushuk bolasimidim telpakka solib boqadigan.*

*Pirmat. Kim seni yarimta tug‘ilgan dedi. ...Men bir nima dedimmi? **I-i-indamay** o‘tiribman-ku.*

*Qulmat. Ha, **i-i-indamay** o‘tiribsiz!*

*(“Eshik qoqqan kim bo‘ldi?”, 258-bet)*

*Erkak. Hm! Shu paytdacha **Ja-a** qoyil qilib hurmatimni joyiga qo‘ydingiz! Bo‘ladi, **Ra-a-ahmat!***

*Ayol. Siz ham qarzdor bo‘lib qolganingiz yo‘q.*

*Erkak. **Ha-a-a**, xullas, ikkovimiz ham qoyil qildik.*

*(“Taqdir eshigi”, 33-bet)*

Ushbu badiiy matnda ironik mazmun nafaqat unlini qavatlash orqali, balki ikkinchi suhbatdosh ohangining o‘zgarishi orqali ham yuzaga chiqarilyapti. Agar belgilangan so‘z tarkibidagi unlilar qavatlanmaganda shu o‘rindagi kesatish unchalik sezilmasdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ironik munosabatning shakllanishida intonatsiya(ohang)ning ahamiyati nihoyatda katta. *Ohang har qanday ironik vositaning ta’sir kuchini ikki baravar oshirib ifodalash uchun xizmat qiladi.*

***Erkak. Vijdon** qiynalyapti.*

*Ayol. Qarang-a! Juda qattiq qiynalyaptimi?*

***Erkak. Ha, burab-burab, sanchib-sanchib olyapti!***

*Ayol. Do‘xtirga ko‘rsating, operatsiya qilib olib tashlashadi. (O‘ychan.)*

***Vijdon** ham ko‘richakdek gap: hech ish qilmaydi-yu, og‘rig‘i olamni buzadi. Ortiqcha dahmaza. **Hozir ko‘chilik shunaqa qilyapti.** Bir yo‘la hamma azobdan qutilasiz.*

*(“Taqdir eshigi”, 19-bet)*

Dramaturg voqea-hodisaga munosabatini zaharxanda, kinoyali tasvir orqali, ya’ni mavhum tushunchaning real narsa yoki hodisaga xos belgilar yordami bilan tasavvur etilishini aks ettirgan. *Mavhum ot birligi aniq otga qiyoslanishi orqali “vijdonsiz ham yashayotganlar qancha” qabilidagi mazmun ifodalanganiki, buni ziyrak kitobxon anglay oladi. So‘z ma’nosining o‘zgarishi fikrning ifoda maqsadi bilan bog‘liq ekan, demak, kinoya bevosita matn tarkibida hosil bo‘ladi, boshqa so‘zlar yordamida mazmuni anglashiladi. Ironiya zamirida, avvalo, tanqidiy fikr yotadi. Sh.Boshbekov ijodida juda ko‘p o‘rinda ana shunday kinoya usuli asosida voqelikni, timsollarning o‘ziga xos xususiyatlarini kitobxon ko‘z oldida aniq va yorqin namoyon qiladi. Muallif maqsadga muvofiq tanlangan so‘zlar, iboralarni ironik qo‘llash asosida voqea-hodisa, holatlar va shaxslarning xarakterini butun nozikligi, o‘ziga xosligi bilan ko‘rsata oladi.*



1. Olimjon. ..Muhimi buyruqni so‘zsiz bajaradi, “g‘idi-bidi” qilib o‘tirmaydi. “Hamma paxta terimiga” – deb buyruq berilsa, har qanday ishini tashlab, dalaga chiqib ketaveradi.

Qo‘chqor. Unda chindan odamga o‘xshar ekan.....biz ham hamma ishimizni yig‘ishtirib qo‘yib, dalaga chiqib ketaveramiz. Bolalarimiz o‘qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini.

Olimtoy. Ana siz bolalarimning o‘qishi nima bo‘ladi, deb o‘ylaysiz. Robotga buning ahamiyati yo‘q. U faqat ishlaydi. Ishlayveradi, ishlayveradi, ishlayveradi!

Qo‘chqor. Biz ham ishlayveramiz...

Olimtoy. Lekin siz **odamsiz!** U – robot, tushunyapsizmi? Robot!

2. Qo‘chqor. Ha-a, bundan chiqdi, sa-al ahmoqroq bo‘lishi kerak ekan-da, a, Olimtoy?

Olimtoy. Shunday desa ham bo‘ladi. Bularning qo‘li, oyog‘i mayli ishlasin. **Lekin kallasi ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak!**

3. Qo‘chqor. Ha, yo‘l bo‘lsin

Qumri(yig‘lamsirab) Kecha nima dedingiz?

Qo‘chqor. Nima debmiz?

Qumri. (yig‘lamsirab). **Aytadiganingizni aytdingiz...**

Yuqorida Sharof Boshbekovning mashhur asari “Temir xotin” trigokomediya sidan olingan parchalarda ham Qumrining tilidan aytilgan “**Aytadiganingizni aytingiz**” jumlasida ostida ham piching, qattiq xafalik holatini, ayol uchun umr yo‘ldoshidan eshitishi mumkin bo‘lgan, “onasining uyiga ketish” darajasigacha olib boradigan eng og‘ir gap yotganligiga shama bor. Yoki Olimjon tilidan aytilgan “...qo‘li, oyog‘i mayli ishlasin. **Lekin kallasi ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak**” jumlasida orqali esa robot nazarda tutilib, aslida mustamlakachi tuzimning millatga bo‘lgan munosabati sarkazm bilan ifodalangan. Mohirlik bilan qo‘llanilgan sarkazmlar orqali kitobxon Qumrining uyiga ketish sababini, Qo‘chqor va Olimtoyning nutqi orqali esa millat tanazzulini anglab etadi va kinoyaga o‘ralgan *yengil kulgi kuchi bilan katta-katta haqiqatlarni ayta olganiga* guvoh bo‘lasiz.

O‘zbek tilida ironik mazmun ifodalashning yana biri **antifraza**dir. **Antifraza** – masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish. Masalan:

Erkak. U-bu narsa to‘qiyasizmi?

Ayol. Yo‘q.

Erkak. Men to‘qiyman, gap shu erda qolsin. (Egnidagi sviterni ko‘rsatib.) Manaviniyam o‘zim to‘qiganman. Ishonmayapsizmi? To‘qiydigan narsalaringizni bering, ko‘rsataman.

Ayol. Men chindan ham to‘qimayman.



*Erkak. Bekor qilasiz. Asablarni shunaqangi tinchlantiradiki, qo‘yaverasiz. Asosan uyda to‘qiyman. Bir-ikki marta ishxonaga olib boruvdim. Odamlar qiziq kulishadi-yey. Uyda bekor o‘tirolmayman, nimadir qilmasam bo‘lmaydi.*

*Ayol. (ayyorlik bilan) Xo‘sh unda xamir-pamir ham qilib ketaversangiz kerak, a? Un-pun olib chiqaymi?*

*Erkak. (og‘rinib). Mabodo, echki-pechkingiz yo‘qmi, sog‘ib berardim!*

*(“Taqdir eshigi”, 13-bet)*

Ironiyani tushunish, unga bo‘lgan munosabat ayrim paytda milliylik bilan ham bog‘lanadi. Yengil qochirimlar, pichingli hazillarni qo‘llagan paytda bu holat mentalitet nuqtayi nazaridan ikkinchi bir insonga tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Erkakning kiyim to‘qishini eshitgan ayol ham hamkasblaridan qolishmagan holda uni kalaka qiladi va ataylab ayollarga xos bo‘lgan boshqa bir yumushlarni tilga oladi – bu orqali ustidan kulayotgani, masxaralayotgani seziladi. Bu bilan jamiyatdagi bir illatning emas, shunchaki erkak kishining asablarini tinchlantirish yo‘lida ayollarga xos bo‘lgan “to‘qib turish”i masxaralanadi va bu bilan ayni o‘sha paytdagi *milliy mentalitet bilan bog‘liq qarashlar* ham esdan chiqarilmaydi.

*1)Erkak. Hozir est qilamiz. Har qalay erkak kishi – erkak kishi-da! (Balkonga chiqib ketadi. Tashqaridan kimgadir). Ho‘, og‘ayni! Ha, siz, siz... Bir minutga mumkinmi? Kechirasiz-da, ozgina vaqtingizni olaman... Shu deng, eshigimiz ochilmay qolsa bo‘ladimi...*

*Ayol. “Eshigimiz”mish!..*

*Erkak. Narigi tomondan bir urinib ko‘rmaysizmi? Ichkaridan ochilmayapti-da, qulfi kasal...(ayol tomonga) egasiyam! ( Tashqariga.) To‘rtinchi qavat, qirqinchi xona..*

*Ayol.Qirq birinchi xona..*

*(“Taqdir eshigi”, 8-bet)*

*2)Qo‘chqor. Olti kishi deding-ku!*

*Qumri. Men ham sal-pal qarashvordim.*

*Qo‘chqor. “Sal-pal”mish! Yechilmayotgandan ham biluvdim, sening qo‘ling tekkanini! Mol arqonlab o‘rganib qolgansan-da, bog‘lagan tuguningni matrosalar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket! Bo‘pti, kechirdim, qo‘lni bo‘shat.*

*(“Temir xotin”, 149-bet)*

Dramaturg ijodini kuzatar ekanmiz, uning *takrorlardan* bir necha lingvopoetik maqsadlarda foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur matnda suhbatdoshining nutqidagi ayni bir so‘zni kinoyali takrorlash ironik munosabatni ta‘minlaydi. Shuningdek, bu o‘rinda I shaxs ko‘plik – “miz” qo‘shimchasi va *ohang* kinoyaning yanada ta‘sirchan qilib ifodalanishiga xizmat qilgan. Quyidagi misolda ham



*morfologik usul*, ya’ni turli qo‘shimchalarni tilda stilistik vosita sifatida qo‘llash orqali badiiy matn ta’sirchanligi yanada oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin:

*Olimjon. Qo‘ying, kennoyi, mehmon bor deyaptilar-ku...*

*Saltanat. Voy, yana mehmondan keladi-ya! Ho‘, **olimcha**, shu tomorqa bilan bola-chaqa boqaman! Mehmoningizning husnu jamoliga qarab bolalarimning qorni to‘yib qolmaydi, tuzukmi?!*

Bu o‘rinda “-cha” qo‘shimchasi *ot so‘z turkumidagi lug‘aviy shakl yasovchi kichraytirish ma’nosida emas, balki – iztehzoli piching, mensimaslik, qadrsizlantirish* kabi mazmunlarini yuklash maqsadida qo‘llangan.

O‘zbek tilida ironik mazmun ifodalashning eng unumli va qulay usuli uni leksik birliklar orqali ifodalashdir. Ironik mazmun leksik bosqichda, ko‘pincha, so‘z birikmasi yoki barqaror birikmalar tarkibidagi biror so‘z bilan yoki alohida olingan so‘z yordamida ifoda etiladi. Bunday paytda so‘zlar hamma vaqt ham o‘z ma’nolarida qo‘llanavermaydi. Ulardan ko‘chma ma’noda foydalanish imkoniyatlari juda keng:

*1)Alomat (hayron bo‘lib). Qo‘chqor aka? Qo‘chqor? Ko‘nglingizga kelmasin-u, nega bunday ism qo‘yishgan. Axir qo‘chqor qo‘yning erkagi-ku!*

*Qo‘chqor. Biz endi **odamning erkagimiz**-da.*

Yoki:

*2)Erkak. Hm! Shu paytdacha Ja-a qoyil qilib **hurmatimni joyiga qo‘ydingiz!** Bo‘ladi, **Ra-a-ahmat!***

*Ayol. Siz ham **qarzdor bo‘lib qolganingiz yo‘q.***

*Erkak. Ha-a-a, xullas, **ikkovimiz ham qoyil qildik.***

*(“Taqdir eshigi”, 33-bet)*

*3) Ayol. (hech kim javob bermadi shekilli, xo‘rsinib go‘shakni qo‘yadi, birdan gelikonga ko‘zi tushib, tutaqib ketadi). Iltimos, anavi anakondangizni ko‘rinmaydiganroq joyga qo‘ying, ko‘rsam asabim qo‘zib ketyapti!*

*Erkak. (boshqa joyga olib borib qo‘yib). **Bitta yaxshi nevropatolog og‘aynim bor, bir o‘zingizni ko‘rsatmayizmi?***

*Ayol. **Meniyam bir yaxshi psixoterapevt dugonam bor!***

*Erkak. **Yaxshi dugona emas ekan, Davolamay o‘z holingizga tashlab qo‘yibdi.***

Ironiyani to‘g‘ri anglay olish kitobxonning tildan xabardorligini, “kosa tagida nim kosani ko‘ra olish”ini; suhbatdoshining shaxsiyatini hurmat qilgan holda qo‘llay olish esa yozuvchining mahorati va madaniyatini hamda til vositalarini saralab qo‘llay olishini belgilaydi. Tilshunoslikda ironiya nutqning ma’lum bir niyat-maqsadini yo‘naltirishga xizmat qiluvchi salbiy sub’ektiv munosabat ifodalovchi, komik effekt hosil qiluvchi lingvopoetik vosita hisoblanib, nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.



Demak, Sharof Boshbekov dramatik asarlarida *Ironiya* tasviriy vositasini qo‘llar ekan, asarlarining badiiy-estetik kuchini oshirishda turli til birliklari vositasida undan o‘ziga xos tarzda unumli foydalanadi. Bunday paytda yozuvchi o‘zining ma’lum bir voqealar oqimida ishtirok etayotgan qahramonining qaysidir yashirin, individual xususiyatini ifodalash uchun mohirlik bilan ironiyani asarga olib kiradi. Bu esa uning qahramonining nutqini jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yashirin ijodiy qirrasini namoyon qilishga xizmat qildiradi.

Sharof Boshbekov har bir qahramonning *hayotiy og‘riqlarini, tashvishlarini ko‘rsata olish, kitobxonni ishontira olish, oldin kuldirib turib, keyin og‘riqni tuyib sukutda qoldiragan* obrazlarni yaratish uchun til birliklaridan o‘z o‘rnida mahorat bilan foydalana olgan ijodkordir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик и фодаланишининг синтактик усули. – Тошкент, Фан, 1983, 36-б
2. Абдурахмонов Ш. Кулги кўзғатувчи лисоний воситалар. НДА. 1998, 19-бет.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. дисс..афтореф... ффд илмий даражасини олиш учун: - Тошкент.1993. – Б. 29.
4. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, Фан, 1977, 15-б
5. Осиновская И. Илохий саргардонлик. Сатира ва худо// Ирония ва Эпос. Мажозий соҳанинг поетикаси. – Москва, 2007, Б. 84-104
6. Қўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, Фан, 1977, 15-б
7. Йўлдошев М. Ядгаров Қ. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, Фан, 2007, 63-б